Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy...

mavjud omillardan salmoqli tejam va mahsuldorlik bilan natija olish imkoniyatlarini mustahkamlaydi, shuningdek, barcha omil va zaxiralar eng maqbul variantlarda ishga solinishi bilan innovatsion faollikning yangi qirralariga sharoit yaratiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, har bir bir xo`jalik yurituvchida innovatsion faollik barqarorligini ta`minlash uchun quyidagi takliflarni bildiramiz:

1.Yuksak mehnat va ijro intizomi amal qilishi shart;

2.Innovatsion faollikning noyob jihati, tarmoq ichida o`ziga xos ustunligi zarur va bu sof raqobatli muhitda ham monopol mavqe yutug`ini kafolatlaydi;

3.Texnologiyalarning o`rtacha yangilanish sur`ati 5 yil bo`lgani uchun, yangiliklarni tatbiq etish darajasi yillik o`rtacha 20% dan ortiq bo`lishi;

4. Yangi ishlanma va tovar, mahsulotlar assortimentini raqobatchilarga nisbatan jadalroq oshirib borish;

5.Tegishli faoliyat bo`yicha tarixi va istiqboldagi o`zgarishlarni, huquqiy mezonlarni doimiy ravishda, puxta o`zlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 09.02.2021 y., 03/21/671/0093-son).

2.O`zbekiston Respublikasining “Raqobat to`g`risida” gi 2012 yil 6 yanvardagi O`RQ-319-son Qonuni.

3.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida” gi PF-60 – sonli Farmoni.

4.Липсис И.В. Экономика: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению подгот. “Економика”/И.В. Липсис. –7-е изд., стер. – Издателство “Омега-Л”, 2013, - 607 с.: илл., табл. – (Высшее экономическое образование). ИСБН 978-5-370-02771-0, 144-стр.

ISHLAB CHIQARISH OMILLARI XAQIDA TUSHUNCHALAR


Umarova Feruzabonu Toshmamat qizi
TDIU Andijon fakulteti,
Menejment 60/23- guruxi, 1-bosqich talabasi.
Tel:+998901545498 E-mail:feruzabonuumarova9@gmail.com

Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini chuqur anglash uchun, eng avvalo, ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Published: 28.03.2024
Cite this article: Umarova Feruzabonu Toshmamat qizi (2024). Ishlab chiqarish omillari xaqida tushunchalar. Emro Science and Education, 1(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/218
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo‘llaniluvchi barcha resurslar **ishlab chiqarish omillari** deyiladi. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat’iy nazar to‘rtta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari, tadbirkorlik qobiliyati bo‘lishi shart.

Ishchi kuchi deb insonning mehnat qilishga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yigindisiga aytiladi.



1-rasim. **Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishi.**

Mehnat qurollari deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta’sir qiladigan vositalarga aytiladi. Bularga mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Mehnat predmetlari esa bevosita mehnat ta’sir qiladigan, ya’ni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir. Yer, suv, homashyo va boshqa turli materiallar mehnat predmetining asosiy turlarini tashkil etadi.

Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi.

«Kapital» ham qiymatga, ham naflilikka ega bo‘lgan, ishlab chiqarish va hizmat ko‘rsatish jarayonida foydalaniladigan, yollanma mehnat (ishchi kuchi) tomonidan xarakatga keltiriladigan vositalardir.

Hamma adabiyotlarda erga deyarli bir hil tushuncha beriladi, ya’ni er deganda tuproqning unumli qatlami, o‘tloqlar, yaylovlar, suv, havo, o‘rmon, qazilma boyliklar, umuman tabiiy resurslar tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida katta e’tibor beriladigan omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir. Tadbirkor deb iqtisodiy resurslar, ya’ni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo‘shilishini ta’minlaydigan, tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo‘rqmaydigan kishilarga aytiladi, bu hislatlar majmui esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi.

Ijtimoiy mahsulotning o‘sish sur’ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbat iqtisodiy o‘sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o‘sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko‘paytirish uchun ishlab chiqarish omillari miqdori ikki barobar ko‘paytirilishi lozim, sodda qilib aytganda mavjud korxonalar bilan bir qatorda o‘rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo‘yicha xuddi o‘shanday yana korxonalar qurilishi lozim. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o‘zgarmay qoladi.

Hozirgi zamon iqtisod fani ishlab chiqarish omili deb ishlab chiqarish natijalarini belgilab beruvchi ob’ektlar, elementlar yoki shart-sharoitlarni tushunadi. Ishlab chiqarish omillari to‘rt asosiy guruhga bo‘lingan holda tahlil qilinadi: er, kapital, mehnat va tadbirkorlik qobiliyati.

Yer tabiiy omil sifatida qaraladi. U inson faoliyatining mahsuli emas, balki tabiatning in’omidir. Omillarning er deb nomlanadigan guruhiga barcha tabiiy boyliklar, foydali qazilmalar konlari, ishlov berilayotgan erlar, o‘rmonlar kiradi.

Kapital ishlab chiqarishning omili sifatida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan ne’matlarning yig‘indisidan iboratdir. Ularga asbob-uskunalar, mashinalar, binolar, omborlar, transport kommunikatsiyalari, aloqa vositalari va boshqalar kiradi.

Moddiy kapitalning texnik holati va darajasi ishlab chiqarish samaradorligiga juda kuchli ta’sir etadi va uning samaradorligini belgilab beradi.

Tovar va xizmatlarni yaratishda ishga solinadigan insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlari mehnat omilini tashkil etadi. Qobiliyatlar yig‘indisi xodimning ma’lumot darajasi, kasbiy ta’lim egallaganligi, ko‘nikmalari, jismoniy salohiyati va boshqa xususiyatlari bilan belgilanadi,

Tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarishning o‘ziga xos omili bo‘lib, insonning ishlab chiqarishning boshqa omillarini muayyan kombinatsiyalarda va usullarda birlashtira olish qobiliyatini bildiradi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, hozirgi vaqtda yuqorida sanab o‘tilgan an’anaviy omillar bilan bir qatorda axborot olish va ekologik omillar ham ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilish va uning yuqori samaradorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri sifatida tobora yuksak ahamiyat kasb etmoqda.

Ishlab chiqarish jarayoni barcha omillarni ishga solinib, amalga oshiriladi. Muayyan buyumni yoki xizmatni ishlab chiqarish uchun er, mehnat va kapitalning biron-bir kombinatsiyasi zarur bo‘ladi. Bu omillar bir-biri bilan bog‘liq holda ishga tushadi va bir-birini to‘ldirib turadi. Masalan, gazlama to‘qish uchun huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan firma tashkil etish, er maydonini ijaraga olish, bu maydonda binolar va texnikani (kapitalni) joylashtirish, xodimlar va menejerlarni yollash zarur bo‘ladi. Agar biror omil ishlab chiqarishga jalb etilmay qolsa, ishlab chiqarish jarayoni sodir bo‘lmaydi. Ishlab chiqarish omillarining bu xususiyati ularning bir-birini to‘ldirishi deb ataladi.

Demak shu bilan birga, ishlab chiqarish omillari ma’lum chegaralarda bir-birining o‘rnini bosishi ham mumkin. Muayyan hajmdagi tovarni ishlab chiqarishga yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan omillarning turli-tuman nisbatlarda bir-biriga qo‘shilishi natijasida erishilishi mumkin. Tadbirkor ishlab chiqarish texnologiyasini tanlashda muayyan resurslarning kamyobligini e’tiborga oladi va shu resurslar o‘rniga boshqalaridan foydalanishga intiladi.

Xulosa sifatida tovar va xizmatlarni yaratishda ishga solinadigan insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlari mehnat omilini tashkil etadi. Qobiliyatlar yig‘indisi xodimning ma’lumot darajasi, kasbiy ta’lim egallaganligi, ko‘nikmalari, jismoniy salohiyati va boshqa xususiyatlari bilan belgilanadi, Bularning hammasi zamonaviy fanda inson kapitali tushunchasi bilan ifodalanadi. Xodimning yuqori malakasiga, yuksak mehnat qobiliyatiga erishish uchun uni o‘qitish va tarbiyalash lozim. Demak, mehnat omilini yaratish uchun ham moddiy kapital talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmonov Sh., Rahmatov M., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik..-T«Zamin nashr» nashr, 2021.-856 b.
2. Shodmonov Sh.Sh., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2017.

728 bet.

3. Jo‘rayev T., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik..-T.: «Fan va texnologiya» nashr, 2018. – 512 bet.
4. Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 55-с.